# XII. DEMOGRAFIK HOLAT



Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023 yilning 1-aprel holatiga viloyatning doimiy aholisining soni 1 483,1 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 7,6 ming kishiga yoki 2,3 foizga ko‘paydi. Shundan, 695,9 ming kishi – shahar joylarida (jami aholi soninig 46,9 %) va 787,2 ming kishi – qishloq joylarida (53,1 %) istiqomat qiladi.



**Jizzax viloyatining hududlari bo‘yicha doimiy aholi soni to‘g‘risida ma’lumot**
*(2023 yilning 1-aprel holatiga)*

| | *Doimiy aholi soni, ming kishi* | | | *Doimiy aholi soninig o‘sish sur’ati, foizda* | | | *Doimiy aholi soninig viloyatda ulushi, foizda* | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | *jami* | *shu jumladan:* | | *jami* | *shu jumladan:* | | *jami* | *shu jumladan:* | |
| | | *shahar* | *qishloq* | | *shahar* | *qishloq* | | *shahar* | *qishloq* |
| **Jizzax viloyati** | **1 483,1** | **695,9** | **787,2** | **102,3** | **102,3** | **102,2** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| *shahar:* | | | | | | | | | |
| Jizzax | 193,2 | 193,2 | - | 102,8 | 102,8 | - | 13,0 | 27,8 | - |
| *tumanlar:* | | | | | | | | | |
| Arnasoy | 48,2 | 16,6 | 31,6 | 101,5 | 101,6 | 101,7 | 3,2 | 2,4 | 4,0 |
| Baxmal | 167,5 | 45,6 | 121,9 | 102,2 | 102,7 | 102,1 | 11,3 | 6,6 | 15,5 |
| G‘allaorol | 183,7 | 64,1 | 119,6 | 102,2 | 101,9 | 102,3 | 12,4 | 9,2 | 15,2 |
| Sharof Rashidov | 238,0 | 94,6 | 143,4 | 102,6 | 102,5 | 102,7 | 16,0 | 13,6 | 18,2 |
| Do‘stlik | 69,1 | 29,2 | 39,9 | 101,6 | 101,9 | 101,8 | 4,7 | 4,2 | 5,1 |
| Zomin | 176,3 | 83,6 | 92,7 | 102,4 | 102,1 | 102,7 | 11,9 | 12,0 | 11,8 |
| Zarbdor | 93,1 | 51,5 | 41,6 | 102,4 | 102,3 | 102,8 | 6,2 | 7,4 | 5,3 |
| Zafarobod | 52,9 | 24,1 | 28,8 | 101,9 | 101,6 | 102,0 | 3,6 | 3,5 | 3,7 |
| Mirzacho‘l | 54,7 | 30,6 | 24,1 | 101,9 | 102,0 | 101,6 | 3,7 | 4,4 | 3,1 |
| Paxtakor | 79,7 | 38,5 | 41,2 | 102,3 | 101,9 | 102,8 | 5,4 | 5,5 | 5,2 |
| Forish | 97,2 | 18,0 | 79,2 | 101,7 | 101,2 | 101,6 | 6,6 | 2,6 | 10,1 |
| Yangiobod | 29,5 | 6,3 | 23,2 | 101,4 | 101,8 | 101,4 | 2,0 | 0,9 | 3,0 |



**Doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot**
*(2023 yilning 1-aprel holatiga)*

**Doimiy aholi soni 1483,1**

**1 483,1** ming kishi

**Tabiiy o'sish +32,7**

**+ 32,7** ming kishi

**Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi**

**Shahar**



**46,9 %**

**Qishloq**



**53,1 %**

## Doimiy aholi soning taqsimlanishi

*2023- yil 1-aprel holatiga*

**Erkaklar**




**748,0** *ming kishi*

**Ayollar**




**735,1** *ming kishi*

2023 yilning 1-aprel holatiga viloyatning doimiy aholisining soni 1 783,1 ming kishini tashkil etib, shundan, 695,9 ming kishi – shahar joylarida (jami aholi soninig 46,9 %) va 787,2 ming kishi – qishloq joylarida (53,1 %) istiqomat qiladi.



**Viloyat doimiy aholisi soni tarkibida hududlar ulushi, % da**
*(2023- yil 1-aprel xolatiga)*




**Yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari**

| *Ko'rsatkichlar* | *Kishi soni* | | *1000 aholiga nisbatan* | |
|---|---|---|---|---|
| | *2022-yil* | *2023-yil* | *2022-yil* | *2023-yil* |
| Tug'ilganlar | 8 951 | 9 725 | 25,1 | 26,7 |
| Vafot etganlar | 1 481 | 1 547 | 4,2 | 4,2 |
| *shu jumladan:* | | | | |
| Nikohlar | 2 095 | 1 642 | 5,9 | 4,5 |
| Ajralishlar | 416 | 436 | 1,2 | 1,2 |

**Tug'ilish.** 2023-yilning yanvar-mfrt oylarida tug'ilganlar soni 9 725 kishini tashkil etdi va 2022 yilning shu davriga (8 951 kishi) nisbatan 774 kishiga ko'paydi, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 26,7 promilleni tashkil qildi.

Tug'ilish koeffitsiyentining sezilarli ko'payishi Jizzax shaharda (28,4 promilledan 36,8 promillegacha), Zomin (28,1 promilledan 27,6 promillegacha), Paxtakor (25,7 promilledan 27,8 promillegacha) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti**
**2023- yilning yanvar-mart holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)**




**O‘lim.** 2023- yilning yanvar-mart oylarida o‘lganlar soni 1547 kishini tashkil qildi va 2022 yilning shu davriga (1 481 kishi) nisbatan 66 kishiga ko‘paydi, mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti 4,2 promilleni tashkil qildi (2021 yil yanvar-mart 4,2 promille bo‘lgan).

O‘lim koeffitsiyentining sezilarli o‘sishi Arnasoy (3,0 dan 6,6 promillegacha), Do‘stlik (2,7 dan 4,8 promillegacha), Sharof Rashidov (2,8 dan 5,1 promillegacha) hissasiga to‘g‘ri keladi.

O‘lim darajasining eng past ko‘rsatkichi Zomin (3,5 promille) Do‘stlik (2,0 promille) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Hududlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti**
*2023- yilning yanvar-mart holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)*




O'lganlar umumiy sonidan 39,3 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 6,6 foizi – o'sma kasalliklaridan, 8,0 foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlardan, 5,0 foizi – ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, 25,5 foizi – nafas olish organlari kasalliklaridan, 2,5 foizi – infeksion va parazitar kasalliklaridan, 13,1 foizi – boshqa kasaliklardan vafot etgan.



**Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi**
*(jami vafot etganlarga nisbatan, % da)*



**Nikohlar va ajralishlar**. 2023 yilning yanvar-mart oylarida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida 1 642 ta nikohlar va 436 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 4,5 ni (2022 yilning yanvar-martda 5,9 bo'lgan) va nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,2 ni (2022 yilning yanvar-martda 1,2 bo'lgan) tashkil etgan.

**2023 -yilning yanvar-mart oyida viloyat bo'yicha tuzilgan nikoh koeffitsiyenti**




Tuzilgan nikohlar soni 2022 yilning mos davriga nisbatan ayrim hududlarda sezilarli ko'payish kuzatilgan. Bunda eng yuqori ko'payish sur'ati Jizzax shahrida (92,1 %), Paxtakor (91,2 %), Arnasoy (90,9 %) tumaniga to'g'ri kelmoqda.



## Hududlarda yanvar-mart oylarida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

*(kishida)*

| | *Tuzilgan nikohlar* | | *Nikohdan ajralishlar* | |
|---|---|---|---|---|
| | *2022- yil* | *2023- yil* | *2022- yil* | *2023- yil* |
| **Jizzax viloyati** | **2 095** | **1 642** | **416** | **436** |
| *shahar:* | | | | |
| Jizzax | 305 | 281 | 67 | 75 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Arnasoy | 44 | 40 | 12 | 11 |
| Baxmal | 261 | 198 | 40 | 34 |
| G‘allaorol | 252 | 222 | 48 | 60 |
| Sharof Rashidov | 314 | 234 | 69 | 83 |
| Do‘stlik | 103 | 60 | 13 | 21 |
| Zomin | 299 | 219 | 48 | 40 |
| Zarbdor | 157 | 108 | 17 | 28 |
| Zafarobod | 74 | 57 | 19 | 13 |
| Mirzacho‘l | 70 | 39 | 19 | 16 |
| Paxtakor | 113 | 103 | 32 | 26 |
| Forish | 81 | 66 | 24 | 22 |
| Yangiobod | 22 | 15 | 8 | 7 |

**Hududlar kesimida nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti (2023 yil yanvar-mart)**




Ajrimlar sonini 2022 yilning mos davriga nisbatan taqqoslanganda, yuqori o‘sish sur’ati Zarbdor (164,7 %), Do‘stlik (161,5 %), G‘allaorol (125,0 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.

Ajrimlar soning eng past ko‘rsatkich Zafarobod (68,4 %) tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.



## Yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o‘sishi soni va koeffitsiyenti

*(kishi)*

| | *Kishi soni* | | *1 000 aholiga nisbatan* | |
|---|---|---|---|---|
| | *2022- yil* | *2023- yil* | *2022- yil* | *2023- yil* |
| **Jizzax viloyati** | **7 470** | **8 178** | **20,9** | **22,5** |
| *shahar:* | | | | |
| Jizzax | 1 191 | 1 552 | 25,8 | 32,7 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Arnasoy | 202 | 180 | 17,3 | 15,1 |
| Baxmal | 861 | 957 | 21,4 | 23,2 |
| G‘allaorol | 878 | 1007 | 19,8 | 22,3 |
| Sharof Rashidov | 1 181 | 1 183 | 20,7 | 20,2 |
| Do‘stlik | 311 | 339 | 18,6 | 20 |
| Zomin | 924 | 1043 | 21,8 | 24,1 |
| Zarbdor | 474 | 519 | 21,2 | 22,7 |
| Zafarobod | 266 | 236 | 20,9 | 18,1 |
| Mirzacho‘l | 223 | 218 | 16,9 | 16,2 |
| Paxtakor | 416 | 465 | 21,7 | 23,7 |
| Forish | 427 | 378 | 18,2 | 15,7 |
| Yangiobod | 116 | 101 | 16,2 | 13,9 |

**Migratsiya.** Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023 yilning yanvar-mart oylarida viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 1 518 kishi, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa 2 069 kishi tashkil qildi. Mos ravishda migratsiya qoldig‘i minus 551 kishi tashkil etgan, 2022 yilning mos davrida minus 500 kishi bo‘lgan.



## Yanvar-dekabr oylarida aholining migratsiya ko‘rsatkichlari

*(kishi)*

| | *Kelganlar* | | *Ketganlar* | | *Migratsiya saldosi* | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | *2022- yil* | *2023- yil* | *2022- yil* | *2023- yil* | *2022- yil* | *2023- yil* |
| **Jizzax viloyati** | **1 912** | **1 518** | **2 412** | **2 069** | **-500** | **-551** |
| *shahar:* | | | | | | |
| Jizzax | 396 | 351 | 459 | 329 | -63 | 22 |
| *tumanlar:* | | | | | | |
| Arnasoy | 45 | 36 | 105 | 100 | -60 | -64 |
| Baxmal | 92 | 71 | 270 | 225 | -178 | -154 |
| G‘allaorol | 102 | 72 | 213 | 206 | -111 | -134 |
| Sharof Rashidov | 493 | 271 | 290 | 251 | 203 | 20 |
| Do‘stlik | 74 | 82 | 147 | 139 | -73 | -57 |
| Zomin | 140 | 128 | 187 | 156 | -47 | -28 |
| Zarbdor | 134 | 102 | 128 | 121 | 6 | -19 |
| Zafarobod | 77 | 55 | 71 | 104 | 6 | -49 |
| Mirzacho‘l | 113 | 105 | 123 | 121 | -10 | -16 |
| Paxtakor | 161 | 161 | 170 | 136 | -9 | 25 |
| Forish | 54 | 57 | 175 | 142 | -121 | -85 |
| Yangiobod | 31 | 27 | 74 | 39 | -43 | -12 |

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Baxmal (minus 154 kishi), G‘allaorol (minus 134 kishi) tumanlarida qayd etildi. Migratsiyaning ijobiy saldosi Sharof Rashidov tumani (20 kishi), Paxtakor (25 kishi) , va Jizzax shahrida (22 kishi) kuzatildi.